

Xalqona ijod namunalarini yaratish ularning e'tirofiga sazovor bo'lish manbaidir

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov Xalq ijodiyoti fakultetining birinchi bosqich talabalari bilan tanishuv uchrashuvi o'tkazdi.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan davra suhabatida oliygoh faoliyati, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ta'lim muassasining ichki tartib-qoidalari to'g'risida batafsil ma'lumot berildi.

Shuningdek, Eldor Shermanov prodyusserlik sohasini e'tirof etib, film va seriallar tashkil etilishi hamda targ'ibotida ularning o'rni benihoya ekanligini ta'kidladi.





